

QUROQ TIKISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shohista Mamasoliyeva, Laylo Sabirova

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiylari va muhim turlaridan biri bo'lib, bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini o'z kasbining mohir ustasi qilib tarbiyalashda ularga boy milliy-madaniy tariximizni chuqur o'rgatish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, xalq hunarmandchiligi tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirishda ahamiyati katta. Mazkur maqolada xalq hunarmandchiligining eng keng tarqalgan va sevimli turlaridan biri bo'lgan quroqchilik haqida so'z yuritilgan. Quroqchilik san'atini yoshlarga o'rgatish orqali talabalarning ma'naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirish, ruhiyatini tarbiyalash va hunar sirlarini o'rgatish kabi bir qator vazifalarni hal etish mumkin. Natijada hunarmandchilik sohalarini yetarlicha o'rgangan, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashni puxta o'zlashtirgan yoshlarning ishsiz qolmasliklari, raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi bilan alohida e'tiborga molikdir.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, muraqa', hirqa, quroq, kreativlik, kompyuter grafikasi.

Buyuk maqsadlar sari dadil qadam tashlab yangilanayotgan yangi O'zbekistonda jamiyatning barcha sohalari qatorida madaniyat, san'at va xalq hunarmandchiligi sohalarini yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamizda ma'naviy qadriyatlarga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, milliy hunarmandchilikni, urf-odatlarimizni, beباho tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2019 yildagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va

hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-sonli qarorida ham mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'limgan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash masalalari ilgari surilgan.

XX asrlarga kelib, an'anaviy turmush tarzi keskin o'zgardi. Shahardagi xotin-qizlar an'anaviy hunarmandchilik bilan mutlaqo shug'ullanmay qo'yishdi, faqat chekka qishloqlardagi ayollargina ajdodlari kasb-korlarini saqlab qolishdi. Sobiq sho'ro davlati tanazzulga yuz tutganidan keyin an'anaviy hunarmandchilikka munosabatda keskin o'zgarish ro'y berdi. Xotin-qizlar ehtiyoj tufayli hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan faol shug'ullanishga kirishdilar. Chunki sobiq sho'ro hududida iqtisodiyotning barbod bo'lishi barchani yangi ish topishga majbur etdi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida tanazzuldan chiqish uchun an'anaviy hunarmandchilik bilan shug'ullanish maqbul yo'l bo'lib qolgan edi. Shu tariqa hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishda ayollar yetakchilikni qo'lga olishdi. Oilaviy daromadni ko'paytirish va xotin-qizlar ijtimoiy mavqeini ko'tarish hamda an'anaviy hunarmandchilikni tiklash hamda xotin-qizlarni yangi iqtisodiy sharoitga ko'niktirish maqsadida bu jarayon davlat miqyosida ham, xalqaro jamg'armalar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekistonda xalq hunarmandchiligi 200 ga yaqin sohaga ega bo'lib, o'zida amaliylik, ijodiylik, milliylikni mujassamlashtirishi hamda qo'llaniladigan xom ashyolarni topishning osonligi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblar va stanoklar talab qilmasligi bilan e'tiborga molikdir. Xalq hunarmandchiligining eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lgan quroqchilik bezak elementi sifatida maishiy hayotda keng qo'llaniladi.


Quroqchilik ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, mayda mato bo'laklarini bir-biriga ulab, ro'zg'or uchun kerakli buyumlar yaratish qadimdan turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Quroqchiik dastlab iqtisodiy nuqtai nazardan telamkorlik

maqsadida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik ijodkorlik, yangilik va go'zallik yaratishga, o'z ijodiy qobiliyatini va yaratuvchanlik mahoratini yorqin tarzda ifodalash orqali san'at darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekistonda quroqchilik qadim tarixga ega bo'lib, quroq atamasi Imom G'azzoliyning "Kimyoi saodat" hamda Alisher Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat", Kamoliddin Husayn Fanoiyning "Majolis ul-ushshoq" asarlarida va tarixchi Husayn Voiz Koshifiyning qo'lyozmalarida "marqa", "hirqa" va "muraqqa" nomlari bilan tilga olingan. Kamoliddin Husayn Fanoiyning yozishicha, o'sha davr insonlarida muraqqa, ya'ni quroqdan tikilgan kiyim-kechaklar turli xil nazar va balo-qazolardan himoyalaydi degan qarash mavjud bo'lган.

Gazlama bilan ishlaydigan har qanday hunarmandda qoldiqlarni tashlamasdan, ulardan ehtiyoj uchun biror bir buyum yaratish ishtiyoqi tug'ilishi tabiiy. Bu bir tomondan, ayollarga xos tejamkorlik, sarishtalikdan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi. Balki shuning uchun ham bugungi kungacha hunarmandlar tomonidan quroqning ko'plab turlari yaratib kelinmoqda. Odatda quroq elementlari uchburchak, to'rtburchak, romb, kvadrat kabi soda geometrik shakllarda bo'ladi. Quroqchilik nafaqat shakl va rangni to'g'ri tanlay bilish, balki yangi g'oya va kreativlikni ham talab qilishini inobatga olsak, oddiy geometrik shakllarni murakkablariga almashtirish orqali ularni yanada betakror va original ko'rinishga keltirish mumkin. Buning uchun kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish an'anaviy uslubdagi quroqchilik texnologiyasiga nisbatan sezilarli darajada samara beradi.


Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mazkur maqolada noan'anaviy uslubdagi quroq tikish texnologiyasini keltiramiz. Tavsiya etilayotgan quroqning noan'anaviyligi shundaki, bunda detallar odatdagidek to'rtburchak blokka emas, aksincha murakkab shaklli detallardan tashkil topgan doira shaklidagi blokka yig'iladi (1-rasm).




1-rasm. Quroq uchun kompozitsiya tanlash.

Navbatagi bosqichda esa mato teksturasi va rang uyg'unligiga erishiladi (2-rasm).

Ma'lumki, quroqlarning chiroyli chiqishi unda tanlangan gazlama qiyqimlarining tolaviy tarkibi, qiyqimlardagi ranglar uyg'unligi, mutanosibligi, iplarning to'g'ri tanlanishi, ishlov berish sifati kabi bir qator omillarga bog'liq. Quroqlarni tikishda ko'pincha, tabiiy gazlamalardan foydalaniladi, chunki, ular yengil bo'lib, yaxshi bukiladigan va taxlanadigan xususiyatga ega. Ammo, quroqlardan buyum tayyorlash jarayonida ularning yuvilganda kirishish xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.



a



b

2-rasm. Quroq uchun gazlama va rang tanlash.

Quroq detallari bichib olingach, ular ehtiyyotkorlik bilan biriktirib olinadi. Detallarning konturi ravon chiqishi uchun ularning qirqimlarni raqamlab chiqiladi va quroq detallari belgilangan raqamlar bo'yicha navbatma-navbat

biriktirma chok yordamida tikib chiqiladi. Ish so'ngida doira shaklidagi blok hosil qilinadi (3-rasm).



a



b

3-rasm. Quroqning tayyor ko'rinishi.

Mazkur blok yordamida turli xil maishiy quroqchilik buyumlarini va hattoki ayollar kiyimlarini bezash mumkin. Ishga yanada kreativlik bilan yondashidigan bo'lsak, bunday bloklarning bir nechtasini bir asosga joylashtirib, o'zbek milliy hunarmandchigi durdonasi bo'lgan so'zanani ham yaratish mumkin.

Albatta hunarmandchilik mahsulotlarini yaratishni bir qolipga solib bo'lmaydi. Chunki ijod cheksiz va mavhum tushuncha bo'lib, u qolipga solinganda yaratuvchanlikka nuqta qo'yiladi. Biroq har qanday imkonsiz deb qabul qilingan abstrakt tushunchalarga qarshi chiqib, yangi g'oyalar, kreativ hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish mumkinligini sinab ko'rish foydadan holi bo'lmaydi. Ayniqsa, bunday topshiriqlarni oliy ta'lim muassalari talabalari uchun mustaqil ta'lim topshiriqlari sifatida berish talabalarni, bo'lajak mutaxassislarni yangilik yaratish, mustaqil fikrlash va mutaxassislik fanlarini tadqiqotlar asosida o'zlashtirishga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2019 yildagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-sonli qarori.

2. Abdullayeva R. Hunarmandchilik taraqqiyotining tarixiy va institusional asoslari. // “Iqtisod va moliya”, 2017 yil 2-son.
3. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. O’quv qo’llanma. SamDU nashriyoti 2020 yil.
4. Saydullayeva M. “Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo‘llash va tayyorlash texnologiyasi” BMI. Qarshi-2015 yil.
5. Faxriddin o’g’li, F. M. Computer graphics in the sphere of drawing details: enhancing creativity and precision. // “Innovation in the modern education system”, 2024 yil 4(37).
6. Faxriddin o’g’li, F. M. Exploring the specific innovations of computer graphics in drawing science. // “Научный Фокус”, 2024 yil 1(10).
7. Faxriddin o’g’li, F. M. Dunyo ta’lim uslublaridagi sara durdonalar. // “Научный Фокус”, 2023 yil 1(7).
8. Faxriddin o’g’li, F. M. Fin ta’lim tizimining global o’qitishda tutgan o’mi. // “Innovative developments and research in education”, 2024 yil 3(26).